



## BO'LAJAK BIOLOGIYA FANI O'QITUVCHILARINING EKOLOGIK KOMPETENTLIGINI INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING MAZMUNI

*Raxmanova M.A.*

*O'ZPFITI Qoraqalpoq filiali mustaqil tadqiqotchisi*

**Tayanch so'zlar:** integratsiya, ekologik ta'lim, ekologik kompetentlik, ta'lim, o'quv-biluv faoliyati, fanlararo uyg'unlik, integrativ yondashuv, dunyoning umumiy manzarasi, umuminsoniy qadriyat, dunyoviy va tarixiy-madaniy tafakkur, bilim, e'tiqod va faoliyat.

**Ключевые слова:** интеграция, экологическое образование, экологическая культура, образование, воспитательная деятельность, межпредметная гармония, интегративный подход, мировоззрение, общечеловеческая ценность, светское и историко-культурное мышление, знание, убеждение и деятельность

**Key words:** integration, environmental education, environmental culture, education, educational activities, interdisciplinary harmony, integrative approach, worldview, universal human value, secular and historical-cultural thinking, knowledge, belief and activity.

Ekologiya ilmi-fan sifatida turli fan sohalariga solishtirilganda endigina ikki yuz yillik tarixga ega, yagni yosh ilmlar sirasiga kiradi. Lekin hayotda, xalqning kundalik turmushida ekologik tushuncha, madaniyat juda qadim zamonlardan buyon yoshlar tarbiyasining bir sohasi, inson ongliligining va fazilatlarining tarkibi sifatida amalga oshirilib kelinmoqda [ 3].

«Ekologiya» so'zini ilm-fan sohasiga ilk bor qo'llangan nemis olimi Ernst Gekkel (1834-1919) hisoblanadi. Olim «Kelib chiqishning tabiiy tarixi» degan kitobida ekologiya ilmi biologiya ilmining tarkibida shakllanib chiqdi va biologiya ning bir qismi sanalib, barcha tirik jonzotlarni hamda ularni urab turgan organik va anorganik muhit bilan munosabatda tadqiq etadi.

Inson ekologiyasi hozirgi vaqtda judayam kata muammo bo'lib kelmoqda. Shu sabali biologiya fan sohasi ekologiyaning ma'lum sohalarini o'ziga tadqiqot ob'ekti qilib olgan. Ekologik muammolar bo'lajak biologiya fani



o'qituvchilarining ekologik kompetentligini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirishda yoshlarga ekologik usluksiz ta'lim-tarbiya berishga qaratilgan.

Bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarining ekologik kompetentligini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish mazmunida o'quvchilarga urgatilishi lozim bo'lgan tabiyat va inson o'rtasidagi munosabatlarni tushuntiruvchi bilimlar tizimini biologiya fani asosida o'rgatish nazarda tutiladi. Bunda ekologik tarbiya insonning qurshab turgan muhitga munosabatini tarbiyalashdan iborat.

Ekologik usluksiz ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadi o'quvchi-yoshlarda atrof-muhit va uning muammolariga ongli ravishda munosabatni shakllantirishdan iborat [ 4 ].

O'quvchilarning xulq-atvorida ekologik normalarning va qoidalarning saqlanishichi shakllantirish, atrof-muhitga nisbatan javobgarlik hissini orttirish, ularning yurish-turishida ekologik kompetentlilik ko'nikmalarini hosil qilishga, tabiyatni sevish va uni avaylab asrash tuyg'usini shakllantirish, hayotning turli sohalarida, ma'lum bir mehnat turini bajarganda ekologik bilimdan foydalanishga odatlantirish, tabiat haqida tushunchalarga ega bo'lishga intilmog'i lozim [ 5].

Ushbu vazifalar maktab bilan hayotning bog'liqligini kuchaytiradi va o'quvchilarning dunyoqarashining shakllanishiga ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Maktab yoshlarga kompleks turdagi ekologik bilimlar va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishning asosiy bosqichlaridan biri sanaladi.

Ekologiya bo'yicha olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning mazmuni maktablardagi bizga ma'lum bo'lgan tarbiya turlari bo'yicha amalga oshiriladi. Ekologik tarbiyaning xususiyati va murakkabligi shundaki, uni tarbiya turlari tizimida amalga oshirish talab qilinadi [ 6].

Bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarining ekologik kompetentligini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirishda xalqimizning o'tmish tajribalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir [4].Jonivorlarning uvoliga qolmaslik haqidagi tarbiyaviy fikrlari Quroni Karimda keng aks ettirilgan.

Insonning jismoniy va ma'naviy hayoti tabiat bilan o'zaro bog'langandir. Bu tabiat o'z-o'zi bilan chambarchas bog'liq demakdir. Zero, inson tabiatning bir qismi ekan, uning farzandi, mahsulidir. Ushbu holat, dastlab, tabiat inson va insoniyat paydo bo'lishining etakchi omili ekanligida nomoyon bo'ladi.

3-Renesans talablari asosida ta'lim-tarbiya jarayonini modernizasiyalashning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lgan yuqori malakali pedagogik kadr tayyorlash sanaladi. Mazkur vazifa, bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarining



ekologik kompetentligini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirishga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi.

Kam sonli bo'lsa-da, tadqiqotlarda oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik faoliyatga tayyorlash, ta'lim mazmunini ilm-fan, texnika va texnologiya sohalarida erishilayotgan yutuqlar bilan takomillashtirishga qaratilgan qator yondashuvlar shakllantirilgan. Ammo, shuni alohida ta'kidlash joizki, mazkur olib borilgan tadqiqotlarda bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarining ekologik kompetentligini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish muammosi ilmiy-metodik nuqtai-nazardan majmualari tadqiq etilmagan.

Pedagogika va psixologiya, fanlarni o'qitish xususiy metodikasida bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarining ekologik kompetentligini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirishga oid tadqiqotlarning tahlili shuni ko'rsatdiki, mazkur muammoni o'rganishga yo'naltirilgan izlanishlar amalga oshirilgan, o'qituvchi kadrlar tayyorlash masalasini sifat jihatdan yuksak darajaga ko'tarishga zamin yaratadigan o'qitish vosita va metodlari muayyan miqdorda tadqiq etilgan. Lekin maktab amaliyotlari tahlilining ko'rsatishicha, fan va texnika taraqqiyoti ta'lim mazmunidan ilgari ketganligi sababli tadqiqotlarning mahsuldorligi, nazariy ahamiyati, yaqqol ko'rsatmalari o'sish sur'atidan birmuncha orqada qolib kelmoqda. Bu esa o'z-o'zidan o'qituvchi kadrlar tayyorlash sifati va samaradorligini ko'tarish jarayoni oldiga yuksak talablar qo'yadi, shu bilan birga qo'shimcha ma'suliyat hissini yuklaydi.

Tadqiqot davomida bu sohadagi ustuvor vazifalar quyidagi yo'nalishlarda belgilanishi:

- bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarining ekologik kompetentligini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish muammosining didaktik va me'yoriy asoslarini tadqiq etish;
- oliy ta'lim muassasalarining bo'lajak o'qituvchilar tayyorlash tizimidagi imkoniyatlarini kvalimetrik diagnostika qilish hamda malaka talablari asosida shakllantirish bosqichlari negizida ta'lim mazmunini takomillashtirish;
- bo'lajak biologiya fani o'qituvchilarining ekologik kompetentligini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish jarayoni samaradorligini ta'minlovchi zaruriy pedagogik-psixologik shart-sharoitlar va didaktik vositalarni belgilash;
- innovatsion o'qitish texnologiyalari asosida oliy ta'lim muassasalari talabalarini innovatsion pedagogik faoliyatga tayyorlash jarayonini



shakllantirish metodikasini ishlab chiqish va uni amaliyotga samarali tatbiq qilish maqsadga muvofiq sanaladi.

Ekologiya faniga oid bilimlarning uyg'unlashuvi mexanizmi – bu tizimning yaxlitligini buzmasdan muvofiqlashtirilgan va tartibli tarzda o'zaro ta'sir qilishi kerak bo'lgan zarur elementlar majmuidir. Bunday "poydevor" aniq fanlarning umumlashtirilgan kognitiv modellari asosida turli sohalardagi o'zgarma ilmiy bilimlarning hodisa va jarayonlarini aks ettiruvchi fundamental tushuncha, g'oya, nazariya va qonunlaridir.

Bunday vaziyatda, ekologik kompetentlikning tarkibiy qismini atrof-muhitga nisbatan yaxlit ilmiy-dunyoviy va ekologik dunyoqarash tashkil etadi. Bunda evolyutsiya va uning umumiy mexanizmlarini ochib beradigan universal nazariya talab etiladi.

Kop hollarda, ijtimoiy va tabiiy fanlar tizimlari ekologik muammolarning intellektual va hissiy tajribasini uyg'unlashtirish uchun asoslar topadi va bu inson faoliyatidagi zamonaviy ekologik kompetentlik hamda sog'lom turmush tarzi shakllanishiga yordam beradi.

Shu tarzda qurilgan ta'lim mazmuni nafaqat ratsional, balki hissiy-emotsional sohani o'z ichiga olgan tabiiy-ilmiy tafakkurni, balki uni gumanitar tafakkur bilan uyg'unlashtirish imkonini beradi.

Ekologik ta'limni insonparvarlashtirish va integratsiyalash talabalarning ekologik kompetentlikni shakllantirishning asosiy ko'rsatkichlari, ya'ni bilim darajasi, ekologik fikrlashning namoyon bo'lishi va tabiatga munosabatni ifodalovchi motivlarini tasdiqlaydi.

Yuqoridagi tahlillarni xulosa qilgan holda, shuni aytishimiz mumkinki, biologiya mashg'ulotlarini didaktik o'yinlar orqali tashkil etish dars samaradorligining oshirish bilan birga, talabalarning dars mashg'ulotiga qiziqishini ham uyg'otadi. Aynan shu didaktik vositalardan keng foydalanish orqali, o'qituvchi talabalarga mavzu borasidagi kerakli bilimlarni o'zlashtirishlari uchun qulay sharoit yaratib bera oladi.

#### Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 27 майдаги 434-сонли «Ўзбекистон Республикасида экологик таълимни ривожлантириш концепциясини тасдиqlаш тўғрисида»ги қарори.
2. Игнатов В.А. Интегрированные учебные курсы как средство формирования экологической культуры учащихся: дис. ... д-ра пед. наук. Тюмень, 1999. - 388 с.
3. Шутова И.П. Формирование экологической культуры будущих учителей: теория и практика: монография. Ишим, 2010. - 160 с.
4. Girusov E. V. Ekologik kompetentlikning tabiiy asoslari // Ekologiya, kompetentlik, ta'lim. - M., 1989. - S. 11-19.



5. Karamatova S.D. (2022). Integrative approach to forming ecological culture of future primary class teachers. *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development*, 6, 82-86.

6. Karamatova D.S., Safarbayeva R.N., Murodova M.M. Bo'lajak pedagoglarning integrativ yondashuv asosida ekologik kompetentlikni shakllantirish // "Образование и наука в XXI веке" Международный научно-образовательный электронный журнал. Выпуск № 25 (том 3), март, 2022. – В.950-955.

7. Salaeva M.S. Psychological conditions for personal and professional development of future teachers. // Washington DC, USA *International Journal of Engineering and Information Systems (IJEAIS)*. ISSN: 2643-640X. With Impact Factor: 3.2. Vol.5 Issue 3, March - 2021.- P.231-233.

8. Tursunova, M. B. (2022). Ta'lim-tarbiya jarayonida milliy qadriyatlarining o'rni. *Science and innovation*, 1(B2), 149-151.

9. Hayitov A.I., Mirkholikova Ch., Niyozmetova N.B., Magdieva M. Theory of development of ecological culture of future primary class teachers based on an integrative approach. *annals of forest research* <https://www.e-afr.org/>. Ann. For. Res. 65(1): 2275-2282, 2022 ISSN: 18448135, 20652445. 2275-2282-betlar.

#### РЕЗЮМЕ

Maqolada bo'lajak biology-pedagoglarni kasbiy tayyorlash jarayonida integrativ yondashuv asosida ekologik kompetentlikni shakllantirishga qaratilgan o'quv-kognitiv faoliyatning fanlararo uyg'unligini ta'minlash masalalari ko'rib chiqiladi.

#### РЕЗЮМЕ

В статье рассматриваются вопросы обеспечения межпредметной связи учебно-когнитивной деятельности, направленной на формирование экологической компетентности на основе интегративного подхода в процессе профессиональной подготовки будущих педагогов биологии.

#### SUMMARY

The article discusses the issues of ensuring interdisciplinary communication of educational and cognitive activities aimed at the formation of environmental competence based on an integrative approach in the process of professional training of future teachers of biology.